

Bizning muomala madaniyatimizda nutqiy etiketning qoidalari.

*Dadabayeva Hayotxon Faxridin qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Nutq insonlar bilan aloqa vositasi hisoblanib, shaxslar o'rtasidagi muomala madaniyatining asosiy vositasidir. Nutq kishilar o'zaro munosabatlarda bir-birlari bilan fikr almashishlari va tushunishlarida muhim kasb etadi. Nutqning mazmun mohiyatining ommaviyligi, uning ijtimoiy qiymatga ega bo'lishida bir qancha belgilar bor. Tezisning mazmun va mohiyati quyidagicha bo'lib, nutqning qay darajada inson muloqotiga ta'sir eta olishi va ahamiyatga ega ekanligi haqida.

Kalit so'zlar: Nutq, notiqlik, adabiy til, imloviy lug'at, Grammatik, ideal, nutq, so'z va iboralar.

Muomala shaxslar o'rtasidagi munosabatning asosiy ko'rinishi hisoblanadi. Insonlar uning yordamida bir-birlari bilan aloqaga kirishadilar. Har bir millatning o'ziga xos madaniyati bo'lib, uning asosini nutqiy etiket qoidalari tashkil etadi. Nutq faqatgina insoniyatga xos sanaladigan ham ruhiyat, ham nafosat hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham yaxshi nutq deyilganda aytilmoqchi bo'lgan maqsadning tinglovchiga to'liq yetib borishi va ularga ta'sir o'tkazishi nazarda tutiladi. O'rta Osiyo xalqlarining tarixdagi o'rni jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan hissasi cheksizdir. Notiqlik va notiqlik san'ati sharq ayniqsa Movarounnahr va Xuroson maktabi namoyondalari jahon madaniyatining gultojisi sifatida ajralib turadi. Bu o'rinda notiqlik san'atida o'ziga xos maktab yaratgan Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505) butun Xuroson diyorida Husayn Bayqaroning voizi, ta'birchisi, maslahatchisi sifatida mashhur edi. Ko'p davrlardan buyon insonlarning o'zaro munosabatlarda, bir-birlarini tushunishlari va fikr almashishlarida nutq, nutqiy munosabatlari hamisha muhim kasb etgan. Hozirgi kunga kelib, zamon talabiga mos ravishda tilning kommunikativ va funksional tamoyiliga hamda nutqiy faoliyatiga e'tibor kuchaydi. Nutqiy faoliyat bu-til va nutq dialektikasiga muvofiq tarzda ro'yobga chiquvchi hodisadir. Albatta har qanday turi so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro munosabat hisoblanadi. Nutqning mazmun mohiyati uning madaniyligi, ommaviyligi va ijtimoiy qiymati bilan belgilanadi. Zamonamizning ajoyib notig'i, nutq madaniyati, nutqiy mahorat va notiqlik san'atiga doir qator ilmiy ishlar muallifi Rahimboy Jumaniyazov nutqiy faoliyatning bir-biri bilan uzviy bog'liqligi, o'ziga xos turlari hamda og'zaki nutq va yozma nutq haqida ajoyib fikrlarni bayon etadi. Amir Unsurulmaoniy Kaykovus "Qobusnomá" asarining "Suhandonlik bilan baland martabali bo'lmoq zikrida" deb nomlangan yettinchi bobida suhandonlikning mohiyati, zarurati shartlari va xususiyatlari bilan bog'liq muhim fikrlarni ilgari suradi. Suhandonlikning muhim shartlari rostgo'ylik hamda nomaqbul rostni aytishdan tiyilishda, so'zni g'oyat ulug'ligini his qilishda va undan oqilona foydalanishda deb biladi. Nutqiy mahorat bu odatiy nutq emas. U fikrni sodda va chiroyli ifoda eta olishdir. Bunda nutqning asosiy belgilari bo'lib:

- Nutqning to'g'riliği;
- Nutqning aniqliligi;
- Nutqning mantiqiyligi;
- Nutqning tozaligi;



-Nutqning ta'sirchanligi.

Nutqning to'g'riliği. Nutqning to'g'ri bo'lishi bu uning aloqaviy sifati sanaladi. Nutqning to'g'ri tuzilganligi nutq jarayonidagi tomonlarning so'zlovchi va tinglovchining bir-birlarini tez va oson tushunishlarini ta'minlaydi. Agarda nutq to'g'ri bo'lmasa u aniq va maqsadga muvofiq hamda mantiqiy ham bo'lmaydi. Nutqning to'g'ri bo'lishi eng avvalo adabiy til normalariga muvofiq kelishidir. To'g'rilik deganda nutq madaniyatining zarur va bиринчи sharti sifatida adabiy tilning ma'lum paytda qabul qilingan normasiga qat'iy va aniq muvofiq qilinganligi, talaffuzi, imloviy lug'at va grammatik normalarni egallashini tushunish lozimdir. **Nutqning aniqligi.** Nutqning asosiy sifatlaridan biri bu aniqlikdir va bu yaxshi nutqning shakllanish sharoitlaridan biridir. To'g'ri nutqning yuzaga kelishida faqat lisoniy faktor zaruriy belgi sifatida qaralganda, nutqning aniqligi uning shakllanishiga xizmat qiluvchi tildan tashqari holatlarni nazarda tutish lozim. Aniqlik "nutq-voqelik" va "nutq-tafakkur" munosabati asosida belgilash mumkin. Aniqlik bu o'zi ifodalayotgan voqelikka to'laqonli mos kelishidir. Aniqlik nutqning xususiyati sifatida eng avvalo til sistemasidagi lug'aviy daraja bilan bog'lanadi. Aniqlikniz vazifaviy uslublari doirasida tushunish mumkin. So'zlashuv uslubida vaziyatga bog'liq bo'ladi, rasmiy ish qog'ozlarida esa aniqlik tildagi tayyor qolib, so'z va iboralardan foydalanishni taqozo qiladi. Ilmiy uslublarda atama hamda uning ifodalananish aniqligi asosiy o'rinda turadi. Publitistik va badiiy nutq uslubida esa so'z va iboralar nafaqat badiiy estetik vazifani bajaradi, balki yozuvchining masalasi va g'oyaviy maqsadiga mos kelishi va shunga xizmat qilishi kerak. **Nutqning mantiqiyligi.** Nutqning mantiqiyligi asosiy sifatlari bo'lgan to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'liq. Chunki grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug'aviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. **Nutqning tozaligi.** Nutqning tozaligi adabiy tilning lisoniy normasiga muvofiq kelish kelmasligi tushuniladi. Ideal nutq hozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilgan bo'lishi turli xil g'ayri adabiy til unsurlaridan holi bo'lishi kerak. Nutqning tozaligi keraksiz so'z va iboralardan holi bo'lishi so'zlovchi va tinglovchi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Qo'pol so'zlarning ishlatalishi ham nutqimiz tozaligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tilning tozaligi, aniq, ma'noli va o'tkirligi uchun kurash madaniyat quroli uchun kurashishdir. Bu qurol qanchalik o'tkir, aniq yo'naltirilgan bo'lsa shunchalik g'olib bo'ladi. Nutq so'zlovchi o'z ustida tinimsiz ishlashi bilan birga nutq jarayonida doimo nazorat qilib borsagina unga ma'suliyat bilan yondoshsagina nutqning tozaligiga erisha oladi. **Nutqning ta'sirchanligi.** Nutqning ta'sirchan bo'lismida asosan og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi. Shuning uchun ham tinglovchi tomonidan qabul qilishdagi ruhiy vaziyatni e'tiborga olish muhimdir. Ta'sirchan nutq deganda, nutq qurilishning tinglovchi va o'quvchi e'tibori va qiziqishini qozonadigan xususiyatlariga ega bo'lgan nutq ta'sirchan sanaladi. Tinglovchilar tushunadigan tilda gapirish va ularni ishontirish natijalar oldiga qo'yiladigan asosiy shartlardan hisoblanadi. Buning uchun mavzuni yaxshi bilishdan tashqari yana bayon etishning aniq belgilangan rejasi bo'lishi kerak. Tinglovchilarga samimiylilik va odob hamda hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning e'tibor bilan tinglanishiga sabab bo'ladi. Demak, nutq aniq va ravon bo'lib, adabiy qoidalarga bo'ysunishi, izchil bayon qilinishi lozim.

"Asl notiqlik barcha kerakli narsalarni me'yori bilan ayta olishdir" .**Fransua de Laroshfuka.**

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. B. Husanov. Muomala madaniyati. Toshkent-2009.
2. R. Jumaniyozov. Nutq mahorati. Adolat, 2005.
3. Donolar xazinasidan. T: O'qituvchi, 1999.
4. Bekmirzayev Norqul. Notiqlik asoslari T: Cho'lpion, 2000.

